

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Abduraxmonov	
Yengil atletika mashqlari yordamida maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini oshirish	199
B.B.Umarov	
Abu Bakr narshaxiy asarida Buxoro shahri tavsifi.....	203
R.Mardonov	
G'arb va sharq falsafasining pedagogik asoslari: tahlil va muhokama	207
X.O'Samatov	
Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi	210
Z.A.Boboyeva	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ma'nnaviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish usullari.....	217
G.U.Radjabova	
Ta'lif tizimi va ta'lif xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari	220
N.N.Bobojonov	
Talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	226
E.S.Yuldashev	
Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish modeli	231
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid.....	236
A.M.Toshpo'latov	
Yoshlarni harbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi.	241
I.A.Maxmudova	
Talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masala sifatida	247
A.N.Qosimov	
Umumiy o'rta maktab o'quvchilari harakat faolligi va jismoniy tarbiyaga qizishini o'rganish	250
F.Sharipova	
Birinchi bosqich talabalariga klinik lug'atni o'rgatish	255
G.Ulug'bekova, Sh.Adhamov	
7-12 yoshdagi bolalarda yuzning fizionomik balandligi o'sish dinamikasi	260
Z.Hamrayeva	
Qisqa masofalarga yugurishda qizlarda tezlik va quvvat fazilatlarini rivojlantirish metodikalari.....	263
U.Jabborov	
11-12 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida voleybol o'ynashning texnikaviy usullari	269
M.Kataeva	
Ta'lif jarayonida mobil ta'limning o'rni va ahamiyati	275
O.Yadgarova	
Shaxsn o'rganishda proyektiv metodikalarning diagnostik imkoniyatlari	279
I.Imomov	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lif jarayonida yuzaga keladigan nizolarni pedagogik tashxis etish	283
M.Babakulova, M.Radjabova	
Interfaol ta'lif texnologiyalari yordamida xitoy tilini o'rganish ko'nikmalarini oshirish	288
X.Tojiyev	
Bo'lajak harbiy ta'lif o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning texnologik - pedagogik shart-sharoitlari	292
D.Buranova	
Tibbiyot uchun kommunikativ ingliz tili o'qitishning samarali metodi sifatida	300
D.Yo'idosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari	303
G.Abdullayeva	
Psixologiya – chet tillarini o'rganishning asosiy jihat.....	308

**TALABA YOSHLARDA MILLIY ARMIYAGA SADOQAT TUYG'USINI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

**PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF FORMING STUDENTS' SENSE OF LOYALTY
TO THE NATIONAL ARMY**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФОРМИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ
ЧУВСТВА ПРЕДАННОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ АРМИИ**

Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich¹

1Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich

– Jismoniy madaniyat kafedrasи mudiri.

Annotatsiya

Mustaqillik yillarda O'zbekiston dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi. Bugun uning jahondagi e'tibori tobora yuksalmoqda. Bu ayniqsa mamlakatimizda demokratik va bozor iqtisodiyotiga oid islohotlarni amalga oshirish qo'liga kiritilayotgan ulkan yutuqlarning dunyo hamjamiyati e'tirof etilishida davlatimizning mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari berayotgan samaralarida o'z ifodasini topmoqda.

Ushbu maqolada talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Аннотация

За годы независимости Узбекистан занял достойное место в мировом сообществе. Сегодня его внимание в мире возрастает. Это особенно находит свое отражение в результатах инициатив нашей страны, направленных на укрепление стабильности и безопасности в регионе, в признании мировым сообществом больших успехов, достигнутых в реализации демократических и рыночных экономических реформ в нашей стране. В данной статье научно исследованы педагогические особенности формирования чувства лояльности к национальной армии у студенческой молодежи.

Abstract

During the years of independence, Uzbekistan has taken a worthy place in the world community. Today, his attention in the world is increasing. This is especially reflected in the results of our country's initiatives aimed at strengthening stability and security in the region, in the recognition by the world community of the great successes achieved in the implementation of democratic and market-based economic reforms in our country. In this article, the pedagogical features of the formation of a sense of loyalty to the national army among student youth are scientifically investigated.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, sadoqat, adolat, fuqarolik jamiyati, jasorat.

Key words: patriotism, loyalty, justice, civil society, courage.

Ключевые слова: патриотизм, лояльность, справедливость, гражданское общество, мужество.

KIRISH

O'zbekiston demografik xususiyatiga ko'ra yoshlar mamlakati hisoblanadi. Haqiqatan ham bugungi kunda yoshlar bilan bog'liq muammolar har qanday mamlakat istiqboli uchun o'ta dolzarb hisoblanadi. Yoshlarning ma'naviy kamoloti juda keng tushuncha bo'lib, bu tushuncha zaminida sog'lom dunyoqarashga ega bo'lgan sog'lom avlodni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tarbiyaning bosh maqsadi jamiyatda ongli hayot kechirish, yuksak madaniy-intellektual hamda farovon muhitni tarkib toptirishga mo'ljallangandir. "Shaxsning kamolotga erishish jarayoni murakkab bo'lib, u kishining irlsiy birliklaridagi dasturi(taqdiri azal), shaxsiy shijoati va tashqi tabiiy va ijtimoiy muhit hamda maqsadga yo'naltirilgan ta'llim-tarbiya jarayonlari ta'siri ostida kechadi"[1].

NATIJA VA MUHOKAMA

Talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ona Vatanga mehr, xalq tinchligi, Vatan mudofaasini mustahkamlash imkonini beradi. Qurol aslahasi, himoya qalqoni mustahkam, o'zi baquvvat bo'lgan inson yengilmas bo'lganidek, armiyasi mustahkam, kuchli, Qurolli Kuchlari qudratli bo'lgan mamlakat ham xavf-xatardan himoya topadi. Shu nuqtai nazardan olganda talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirish ham yuragida o'ti bor, jismonan chiniqqan, yengilmas er yigitlar bilan armiya safini to'ldirish imkonini beradi.

Talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirish bilanoq armiya kuchli askarları yengilmas bo'lib qolmaydi.

Eng avvalo, Vatan mudofaasiga, armiya xizmatiga tayyorlanuvchi yoshlarning sog'ligi mustahkam, jismonan chiniqsan, baquvvat epchil bo'lib o'sishi kerak. Buning uchun esa mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalab yetishtirish uchun barcha shart sharoitlar mavjud.

Sog'lom avlod – jahonga yuz tutgan mustaqil O'zbekistonda qurilayotgan adolatli, huquqiy insonparvar jamiyatning tayanchi, sog'lom avlod jismoniy va ma'naviy barkamol kishilardan iborat. Barkamol kishilarning jismonan qudratli salohiyatlari, ma'nani tetik, ruhan, tetikligi, xush odobi hamisha olmosday chaqnab turadi. Sog'lom va barkamol insonlargina milliy armiya safini to'ldirsa, armiya xizmatini kasbiy kamolot darajasiga ko'tarsa mamlakat mudofaasi ishonchli qo'llarda bo'ladi.

Talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirish xususiyatlaridan biri ma'naviy ruhiy tiklanishdir. Ma'naviy ruhiy tiklanish esa, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur hissini, tuyg'usini qo'zg'otish bilan mustaqil mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni jadallashtirishni, qo'liga kiritilayotgan yutuqlarni mustahkamlashdir.

Insonda shakllangan milliy g'urur esa, insoniyat yangi qadam qo'ygan XXI asr fan-texnika rivojlangan, komppyuter va kibernetika asri bo'lishi bilan bir qatorda, insonlar uchun turli xavf-xatarlar ham ko'proq tahlikali bo'lgan davr sifatida tarixga kirmoqda.

Vatanimizdagi buyuk o'zgarishlar va yuz berayotgan bugungi kunda mamlakat fuqarolarida, ayniqsa jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodda milliy g'ururni shakllantirish umum davlat miqyosidagi muhim vazifa bo'lib qoldi. Chunki, bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi jamiyatni buniyod etish jarayonida yanada jadallashtirish, kishilardagi milliy g'urur tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. O'z taqdirini mamlakat, xalq taqdiri bilan mustahkam bog'lay oladigan, yangi jamiyatni buniyod etish jarayonini yanada jadallashtirish, kishilardagi milliy g'urur tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. O'z taqdirini mamlakat, xalq taqdiri bilan mustahkam bog'lay oladigan kishigina mustaqil davlatimiz manfaatlarini hammadan ko'proq, ortiqroq himoya qiladi. Milliy g'ururi bor kishigina o'z taqdirini, o'z manfaatini Vatan, xalq taqdiri bilan Vatan, xalq manfaati bilan bog'lay oladi. Vatan mudofaasiga, milliy armiyaga sadoqat tuyg'usi kuchli bo'ladi. Vatan xalqning manfaatlarini yurakdan himoya qiladi. Mamlakat fuqarolarining milliy g'ururi qancha ko'p bo'lsa, ularning mamlakat taraqqiyotiga qo'shgan xissasi ham shuncha ko'p bo'ladi.

Yosh avlod qalbida milliy g'urur bo'lish, ularning murg'ak qalblariga joy etish, ana shuning uchun ham zarur. Bunday saxovatli ishni amalga oshirish uchun esa, professor va o'qituvchilar jamoasi, eng avvalo milliy g'ururni shakllantirish yo'llarini, uslublarini ishlab chiqib chuqr darslar va ma'naviy ma'rifiy ishlar jarayonida amalga tadbiq etishlari zarur.

Darhaqiqat, milliy g'urur – bu keng va chuqr tushuncha. Milliy g'ururi bor kishi milliy o'zligini anglaydi. Milliy o'zligini anglash esa, o'zini qanday millatga mansubligi, bu millatni jahon xalqlarining rivojiga qo'shgan hissasi va shu millatlar orasida tutgan o'rnini tushunishi va bu yo'lda o'zining fidoiylik bilan qo'shgan xissasini tushuniladi.

Milliy g'urur insonni o'zi tug'ilib o'sgan qishloq yoki shaharga, kindik qoni to'kilgan yerga mehr va muhabbat, ota-bobolari avlod-ajdodlarini e'zozlashga o'z yurtining tarixi, buguni va kelajagi bilan faxrlana olishida o'z aksini topadi. Ammo shuni unutmasislik kerakki, milliy g'urur bu Vatanni sevish haqidagi chaqiriqlar, balandparvoz gaplar emas. Milliy g'ururni milliy manmansirashdan ajrata olish kerak. Milliy manmansirash bu millatning oyog'iga bolta uradi. Davlatni inqirozga olib boradi. Sobiq ittifoqning qulashida asosiy nomuroslikni kelib chiqishi sabablaridan bir ham millatlarni teng ko'rmaslik, ularning tiliga, diniga e'tiborsizlik bo'ldi.

Ayniqsa, bugungi ko'p millatli O'zbekistonimizda milliy manmansirash aslo mumkin emas. Bu Vatanimiz fuqarolari orasidan turli nizolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham Prezidentimizning oqilona siyosati O'zbekistonda barcha millatning tengligi, barqarorligi, qardosh qadrdonligini saqlashga qaratilgan.

Talaba-yoshlarda milliy g'ururni shakllantirishda yuqoridaq aytganimizdek, o'z millatini kimligini uning o'tmishi bugungi va kelajagini bilish uning bilan faxrlanish katta ahamiyatga ega.

Biz o'zbeklarning, ayniqsa, qadimda yagona oilada yashagan O'rta Osiyo xalqlarining o'tmishi buyuk faxrlansa arzigelikdir. O'tmishi buyuk bo'lgan xalqning kelajagi buyuk deydilar. Avlod ajdodlarimizning yashab o'tgan davriga, tarixiga bir nazar tashlasak, tarixda bizning xalqimizdek jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan xalqlar oz ekanini bilamiz.

Ajdodlarimiz o'z el-yurtlarining fidoiyları o'z Vatandoshlarining mehribonlari bo'lganlar. Kindik qonlari to'kilgan tuproqning bir siqimini o'zga yurtning oltin-u javohirlari, behisob boyligi-yu zarlariga almashtirmaganlar. Bu odat o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketganki, u o'z go'shasini hech

qachon o'zgalarning qasri-koshonalariga almashtirishni ravo ko'rmaydi. «Ona yurting, oltin beshiging», «O'z uyim, o'lan to'shagim», deya bor mehr-u muhabbatini o'z yurti, o'z Vatani, uyi xonodonи ahliga berib xoh to'qlik bo'lsin, xoh yo'qlik bo'lsin shukur qilib yashayveradi. Mana bu fazilatni Vatanni sevish Vatanparvarlik deyiladi.

O'z Vatanini sevmagan odam yomon odam. Kimda-kim o'z ona diyorining zamini-yu, oqar suvlarini, kimsasiz cho'llari-yu, dala-dashtlarini qalbidan seva olsa, unday odam kam bo'lmaydi. Zavol ko'rmay, kamol topadi. Talaba yoshlarda shunday fazilatlarni tarbiyalash o'z vataniga mehr-u muhabbat, o'z xalqiga hurmat va fidoiylik uning mudofaasiga hamisha tayyor bo'lish milliy armiyaga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish imkonini beradi.

Vatanparvarlik - bu Vatanimiz xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash, hamda uni rivojlantirishga, o'z hissasini qo'shish, uning haqiqiy jonkuyari bo'lishdir.

Vatanparvarlik – bu Vatan oldidagi ma'suliyat, millat manfaati bilan yashash, Vatan taraqqiyoti, millat obro'siga obro' qo'shish, unga foyda keltirish, fidoiylik, halollik bilan mehnat bo'lish, xalqning shon-shuhratini va manfaatini o'ylash, inosnparvar bo'lish demakdir.

Vatan mehri, Vatan ishq shu qadar buyuk, unga bo'lgan mehr inson qalbiga shu qadar muhim o'rashganki, hech qanday kuch bu tuyg'uni zo'rlik bilan inson qalbidan tortib ololmaydi. Xususan bizning ajdodlarimizda bu tuyg'u ko'ngil to'rida juda chuqur tomir otgan. Ularning avlodlari bo'lmish bizlarga ham, teran singib ketgan.

Vatan va xalqning or-nomusi, qadr-qimmati uchun ko'rsatilgan fidoiylik va jasorat aslo unutilmaydi.

Milliy armiyaning salohiyati uning kuch-qudrati qanchalik zamonaviy harbiy qurol va harbiy texnika bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'lishi bilan bir qatorda, shu armiya safida xizmat qiluvchi yuqori rahbardan tortib toki oddiy askarlargacha bo'lgan insonlarning axloqiy madaniyati qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir. Axloqsiz, yomon xulqqa ega bo'lgan insonlar orasida murosaa, o'zaro hurmat, qattiq intizom bo'lmaydi.

Intizomsiz armiya esa, hamisha mag'lubiyat qurban ni bo'ladi. Shu bois armiya safida xizmat qiluvchilarda, armiya safini to'ldiruvchi yoshlarda Vatan mudofaasi, milliy armiyaga sadoqat tuyg'usining shakllanishi ularda axloqiy madaniyatning yuqori bo'lishini taqazo etadi. Axloq har bir insonni, ayniqsa yoshlarning hayotida, harakati, muomala-muloqatida o'z-o'zini boshqarish, armiya intizomiga shaksiz rioya qilishni taqazo etadi.

Istiqoldan keyin Vatanimiz tinchligini ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidagi milliy armiyamiz faqat harbiy quvvati bilangina emas, harbiy xizmatchilar va askarlarning ma'nnaviy yetukligi bilan ham diqqatga sazovordir.

O'zbekiston Respublikasi bosh qonuni – Konstitutsiyamizda "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar"[2], deb ko'rsatilgan.

Shu bois mamlakatimizda barcha millatlar o'zaro totuv va hamjihatlikda yashamoqdalar. Barcha fuqarolar, yoshlar, talaba-yoshlar milliy istiqlol mafkurasining millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyasiga sodiq va sadoqat bilan yashamoqdalar.

Milliy armiyamiz safida xizmat qilayotgan farzandlarimiz o'zaro ahil, bir-birlari bilan bir oila farzandlaridek faoliyat ko'rsatib, o'zlaridan keyin armiya safiga keluvchi yoshlarga namuna bo'lmoqdalar. Albatta, bunday namunali armiya hayoti barcha yoshlarda, shu jumladan, talaba-yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllanishida katta omil bo'lib xizmat qiladi.

Talaba-yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirish – hozirgi tahlikali, notinch zamonda jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlarni sezish, insoniyatning tinch, osuda hayotiga xavf-xatar olib kirayotgan terrorizm, aggressiv millatchilik darajasidagi qora kuchlar maqsad-muddaolarini sezib, hamisha ular tug'diradigan xavf-xatardan ogoh turish; Vatan mudofaasi, xalq tinchligi uchun milliy armiya kuch-quvvati va salohiyatini oshirishga, ularning saflarini to'ldirishga hamisha tayyor turish; milliy armiya safida xizmat qilib, uning ichki va tashqi intizomi, qonun-qoidalarini bajarishga, Vatan mudofaasiga lozim bo'lsa jonini fido qilishga tayyor turishdir.

Milliy armiyaga sadoqat tuyg'usi – o'z Vatanini, o'z xalqini jordan sevish, yurt tinchligi, xalq farovonligini ta'minlashda har qanday salbiy qarashlar, qora niyatli kishilarning xatti-harakatlariga qarshi kurashni o'ziga sharaf deb bilishdir.

Talaba-yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirish – fuqarolarni o'z-o'zini tarbiyalab, chiniqtirib, armiya safida namunali xizmat uchun tayyor, har tomonlama yetuk, komil inson bo'lishni maqsad qilish, unga erishish uchun ming-ming yillardan buyon shakllangan va necha-necha asrlar sinovlaridan o'tib, bezavol yashab, rivojlanib kelayotgan milliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga va axloq-odob qoidalarimizga sodiq, uni hurmat qiluvchi, ularga hamisha amal qiladigan va o'zidan keyingi o'sib kelayotgan yoshlarga o'rnak bo'la oladigan inson darajasiga ko'tarilish demakdir.

Milliy armiyaga sadoqat bu – tinchliksevar, inson haq-huquqlarini kamsitilishiga, insonni inson tomonidan haq-huquqlarini buzilishiga murosasiz qaraydigan, birovlarning mol-mulkiga, yersuviga, Vataniga noo'rin ko'z olaytirmaydigan kuchli, yengilmas, or-nomusli, iyomon-e'tiqodli O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga munosib barkamol inson bo'lib yetishmoqdir.

Milliy armiyaga sadoqat tuyg'usi – mamlakatda olib borilayotgan islohatlarni ulkan natijalarga olib borishda millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyalariga sodiq; bugungi kundagi murosasizlik va pinhona urush – mafkuraviy janglarda dushman taktikasiga aldanib qolmaydigan hushyor va ogoh inson bo'lish; har qanday yot g'oyalar, begona mafkuralar ta'siriga qarshi kurasha oladigan, qalbi va ongida begona mafkuralarga qarshi immunitet shakllangan, millatparvar, xalqparvar insonlarni tarbiyalab yetishtirmoq demakdir.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Milliy armiya, armiya so'zlarining lug'aviy ma'nosi, mazmun va mohiyatining ochib berilgan, milliy armiya va uning ravnaqi yo'lidagi ilmiy izlanishlar qilgan olimlarning fikrlari, ilmiy tadqiqod olib borgan izlanuvchan olimlarning yozgan adabiyotlari va ilmiy tadqiqot ishlari o'rganilgan. Mustaqil O'zbekiston fuqorosi uchun, mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlar uchun, vatanparvarlik, Milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat, Ona Vatan mustaqilligini ko'z qorachig'iday saqlash ekanligi, hamda Vatanparvarlik, milliy armiyaga sadoqat yoshlar uchun muqaddas burch ekanligi, bu burchga sodiqlikni tarbiyalash zamon talabi ekanini ochib berilgan. Vatanparvarlik, O'zbek fuqarosining Vatanparvarligi haqidagi yurtboshimiz fikrlari keng bayon etilgan. Vatanparvarlik, Vatan mudofasi uchun jon fido qilish o'tmish ajdodlarimizdan bizga qolgan me'ros ekanligi, tarixiy manbalar asosida chuqur bayon etilgan. Talaba yoshlarimizda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishda Vatanimiz tarixini, tarixiy xotiralarni tiklash, shuning bilan birga Vatanimiz ravnaqini ko'ra olmaydigan, ma'naviyatimizni sindirish uchun mafkuraviy kurash olib borayotgan qora kuchlar va ularning kirdikorlari tadqiqot ishida ochib berilgan. Oliy ta'lim muassasalarida talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishda yoshlar yuqorida aytib o'tganimizdek begona mafkuralar va yot g'oyalar ta'ciriga tushib qolmasliklari uchun yoshlar qalbi va ongida mafkuraviy immunitet yaratish, buning uchun zarur bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy ishlari yo'nalishlari ishlab chiqildi. Bu xavflardan voqif bo'lish, hushyor turish, zarur bo'lganda bu xavflarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatalgan. Talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishda zarur bo'lgan tadbirlar rejasи ishlangan. Ushbu maqolada eng avvalo Vatan mudofaasi armiya xizmatiga tayyorlanuvchi yoshlarning sog'ligini mustahkam bo'lishi, jismonan chiniqishi, baquvvat epchil bo'lishlari zarurligi, buning uchun mamlakatimizda juda katta ishlар amalga oshirilganligi tahlil qilingan. «Sog'lom avlod uchun» davlat dasturi, «Sog'lom avlod uchun» ordeni ta'sis etilganligi yoshlarimizning har taraflama sog'lom va baquvvat bo'lib voyaga yetishi uchun yaratilgan sharoit ekanligi tadqiqot ishida o'z isbotini topgan. Ushbu bobda milliy armiyaga sadiqat tuyg'usini shakllantirish uchun yoshlarimizni komil inson ruhida tarbiyalash, ularni mtlliy istiqlol g'olariga sadoqatli, o'z mafaatini Vatan, xalq manfaati bilan uyg'un ko'radigan, Vatanim, xalqim –deb yonib yelib faoliyat ko'rsatadigan komil insonlar qilib tarbiyalash yo'llari keng bayon etilgan. Bu maqsadlarni amalga oshirishda O'rta Osiyo mutafakkirlarining fikrlari, asarlaridan unumli foylalanish zarurligi ko'rsatilgan. Komil inson tarbiyasida ayniqsa «Sharqt Arastusi» nomini olgan buyuk alloma Abu Nosir Forobiyning fozil insонning ma'naviy qiyofasiga bergen ta'rifidan o'rnila foydalinigan. Imam Ismoil al-Buxoriy, Ibn Sino, Abu Rayhon al-Beruniy, Alisher Navoiyning qimmatli fikrlari, durdona asarlaridan foydalanish zaruriyati ochib berilgan.

Shu bilan birga Vatanni sevish, Vatan mudofasiga jon fido bo'lish hissini, milliy armiyaga sadoqat hissini tarbiyalashda o'tmishimizdagи xalq qahramonlari darajasiga ko'tarilgan ajdodlarimizdan To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurning jangovor hayoti yoshlarga namuna qilib ko'rsatilgan. Xuddi shuningdek talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishda ming ming yillardan buyon shakllanib sinovlardan o'tib xalqimiz orasida qo'llab kelayotgan milliy qadriyatlarimizdan foydalanish zaruriyati isbotlab berilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ushbu bobda talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishning nazariy asoslari ilmiy pedagogik nuqtai nazardan yetarli isbotlangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. B.Ziyomuhhammadov. Pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006 y., 37-b.
2. «O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi». Toshkent, «O'zbekiston». 2003 yil, 6-bet.
3. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. Toshkent, 1998 yil.
4. A.Ibrohimov va boshqalar. "Vatan tuyg'usi". Toshkent, "O'zbekiston", 1996.
5. "Odob bo'stoni va axloq gulistoni". Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1994 yil.
6. Bobojonov, N. (2022). Healthy lifestyle and its constituent factors. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(10), 298-304.
7. G'Oynazarov, G. (2022). JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QITISH METODLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH. Экономика и социум, (6-2 (97)), 71-74.
8. Nozimjon, B. (2022). The Importance Of The Development Of Physical Qualities In The Motion Of Games. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 37-43.
9. Goynazarov, G. (2022). THE MAIN ASPECTS OF THE FORMATION OF PHYSICAL CULTURE IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Research Focus*, 1(4), 312-315.
10. Bobojonov, N., Qosimov, A., & Abdubannopov, M. (2022, June). AGE-SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PHYSICAL TRAINING OF COLLEGE STUDENTS. In *E Conference Zone* (pp. 64-67).
11. Bobojonov, N. N. (2021, August). Pedagogical problems of forming a sense of loyalty to the national army in students. In *Archive of Conferences* (pp. 104-109).
12. Goynazarov, G. (2022). Development of Movement Qualities in Children. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(04), 42-47.